

TUZNI YODLASH DASTURINI MONITORING QILISH, AHOLINING YOD TA'MINOTI HOLATINI VA YODLANGAN OSH TUZI SIFATINI GIGIYENIK BAHOLASH

Buriyev A. Ya., Qarshi Davlat Universiteti,
Murodova Z., Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Qashqadaryo
viloyat boshqarmasi
Abdiraxmonova R., Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi
Qashqadaryo viloyat boshqarmasi

Tuzni yodlash yod tanqisligi (YT) bilan bog'liq kasalliklarni barqaror nazorat qilish va bartaraf etishning asosiy strategiyasi bo'lib qolmoqda (1). Hozirgi vaqtida Dunyoda ikki milliarddan ortiq odam atrof-muhitda yod tanqisligi sharoitida yashaydi, ularning 700 milliondan ortig'i endemik bo'qoq bilan kasallangan. Bu muammo mintaqamiz uchun ham dolzarbdir. Bizning tadqiqotimizda qadoqlangan osh tuzi ishlab chiqaruvchilari tomonidan e'lon qilingan osh tuzidagi yod miqdorining mamlakatda qabul qilingan standartga muvofiqligini baholash natijalari keltirilgan.

Tadqiqotda Sanitariya va epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi sanitariya-gigiyena laboratoriyasida o'tkazilgan tekshirishlar natijasi tahlil qilindi. 2020-2023 yillarda 1697 ta yodlangan osh tuzi namunalari olinib osh tuzidagi yodning miqdorini aniqlash uchun laboratoriya tadqiqotlari o'tkazildi. Jumladan, tekshirilgan namunalarning 51 tasi qadoqlangan tuz ishlab chiqarish sexlaridan, 547 ta namuna savdo nuqtalaridan, 668 tasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 29 ta namuna o'quv yurtlari, 54 ta namuna davolash profilaktika muassasalari oshxonalaridan, 351 ta namuna aholi xonodonlaridan olingan. Yodning tuzdag'i konsentratsiyasini yodométrik titrlash usuli yordamida o'lchandi. Yodométrik titrlash reagentlarni tayyorlagandan keyin o'tkaziladigan ikki analitik bosqichdan iborat bo'lib, ushbu ikki bosqichda tuzdan erkin yod ajratiladi va keyin erkin yod tashqi indikator sifatida kraxmalni qo'llagan holda tiosulfat bilan titrlanadi. Natijalar bir kilogramm tuz uchun milligramm yodda ifodalandi(mg/kg).

Tekshirilgan namunalarning 75,5%ida yodning miqdori belgilangan meyoriy-texnik hujjatlarga muvofiq emasligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkich yodlangan tuz ishlab chiqaruvchi sexlardan olingan namunalarda 78,4%ni, savdo nuqtalarida-82,4%ni tashkil qildi. Bevosita iste'molchilar ixtiyoridagi tuz namunalari tekshirilganda mактабгача та'lim tashkilotlari oshxonalarida ishlatilayotgan tuzning 69,5%i, o'quv yurtlari oshxonalaridan olingan namunalarning 86,2%i, davolash profilaktika muassasalari oshxonalaridan keltirilgan namunalarning 68,5%i osh tuzidagi yodning miqdori bo'yicha meyor talablariga javob bermasligi aniqlandi. Uy xo'jaliklarida yodlangan osh tuzi qamrovini baholash uchun olingan 351 ta osh tuzi namunalarining 72,4 %ida yodning miqdori belgilangan meyoriy-texnik hujjatlar talabiga muvofiq emasligi aniqlandi. O'zbekistonda amaldagi standart osh tuzining kg boshiga 40+- 15 mg yodni, asosan, kaliy yodati shaklida qo'shishni nazarda tutadi. Tadqiqotda tekshirilgan osh tuzi namunalarining 26,0%ida yodning umuman mavjud emasligi, namunalarning 48,6%ida yodning miqdori 25 mg/kggacha bo'lib amaldagi standartdan kam ekanligi aniqlandi. Yodlangan tuzdan foydalangan holda yod tanqisligi kasalliklari profilaktikasi dasturining samaradorligini baholovchi muhim ko'rsatkich standart darajadagi yodlangan tuz namunalarining ulushi hisoblanadi. Monitoring kuzatuvlari olib borilgan davrda 25,2% tekshirilgan osh tuzi namunasida yod miqdori 25-55 mg/kgni tashkil qildi, ya'ni qabul qilingan standart chegaralarida ekanligi kuzatildi. Tekshirilgan namunalarning faqat 0,2 %ida meyorning yuqori chegarasidan, 55 mg/kgdan yuqori natija qayd etildi. Ma'lumki, yod tanqisligi kasalliklarining oldini olish dasturlari samaradorligini baholash uchun ikkita mezon qo'llaniladi: aholining yodlangan tuz bilan qamrovi va siydikdagi yod konsentratsiyasi. Agar aholi xonardonlarining 90% dan ortig'i yodlangan tuzni iste'mol qilsa, profilaktika dasturi samarali bo'ladi. Tadqiqot davomida olingan natijalar mintaqada aholining qabul qilingan standart chegaralarida yodlangan osh tuzi bilan qamrash darajasi past ekanligini ko'rsatdi.

Bizningcha, buning sababi, mintqa bozorida qadoqlangan yodlangan tuz ishlab chiqaruvchilarning keng doirasi mavjud, ammo ularning aksariyati yodlangan tuz ishlab chiqaruvchi kichik sexlardan iborat. Tadqiqot davomida tekshirilgan tuz namunalari yodlangan osh tuzini qadoqllovchi 47 ta kichik tadbirkorlik subyektlarida ishlab

chiqarilgan bo‘lib, ular kichik quvvatli bo‘lib yetarli darajada yodlangan tuz ishlab chiqarishning barqaror o‘sishini kutish mantiqsiz bo‘lishi mumkin. Bunday holat, aholining barcha guruhlarini yetarli miqdorda yodlangan osh tuzi bilan ta’minlash uchun hukumat va tuz ishlab chiqaruvchilar hamkorlikda ishlashlari va kichik ishlab chiqaruvchilarga kooperativlarni tashkil qilishda yordam berishlari kerak.

Shunday qilib, yetarli darajada yodlangan tuzning universal mavjudligini ta’minlash ovqatlanish dasturlarining muhim maqsadi bo‘lib qolishi kerak va bu maqsadga uy xo‘jaliklarining 90% idan ortig‘i yodlangan tuz bilan ta’minlanganda erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Guideline: fortification of food- grade salt with iodine for the prevention and control of iodine deficiency disorders. Geneva:WHO;2014.
2. Kurbanovich K. S. et al. Actual Nutrition of Breastfeeding Women in Kashkadarya Region //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – T. 4. – №. 5. – C. 327-329.
3. Boymuratovna B. G. Challenging Problems of Healthy Nutrition of Pregnant Women in Uzbekistan //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – T. 4. – №. 3. – C. 71-73.
4. Boymuratovna B. G. PHYSIOLOGICAL REQUIREMENT OF PREGNANT WOMEN FOR MICRONUTRIENTS //NeuroQuantology. – 2022. – T. 20. – №. 15. – C. 2499.